XALQ DEPUTATLARI O’RTACHIRCHIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-4-013-10-143-K/24 O’rtachirchiq tumani

O‘rta Chirchiq tumanining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq hamda Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 26-dekabrdagi 01/01-04/457-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari O‘rta Chirchiq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi 3-030-10-0-K/24-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, O‘rta Chirchiq tumani mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **97 754 607,0 ming.so‘m** va xarajatlari esa **97 754 607,0 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi shuningdek O‘rta Chirchiq tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **408 217,0 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2025-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq, shuningdek O‘rta Chirchiq tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 035 775,0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda

oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **4-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 m^2 uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar muvofiq tasdiqlansin.

-yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutlaq miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **6-ilova**ga muvofiq;

YaTTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdorlari **7-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Tuman (shahar)lar xalq deputatlari Kengashlariga mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlash tavsiya qilinsin:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori **8-ilova**ga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **9-ilova**ga muvofiq;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori **10-ilova**ga muvofiq.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Aripov tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Razzakov), tuman soliq inspeksiyasi (M.Soatov) bilan birgalikda 2025 yil mahalliy byudjet i uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari O‘rta Chirchiq tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (N.Xaitqulov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Aripov zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi



KASIMOV IXTIYOR RUSTAMOVICH

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
1-ilova

O‘rta Chirchiq tuman mahalliy byudjet i daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	2025-yilda miqdori
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	12,761,000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	9 245 700
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 062 000
	Aksiz solig’i jami	5 161 750
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0
	pivo	0
5	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	5 161 750
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 486 220
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 375 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 466 060
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	33 399 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	452 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 992 877
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
13	Davlat boji	0
14	Yig‘imlar	0
15	Jarimalar	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	303 000
JAMI		**97 704 607**

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yil uchun O‘rta Chirchiq tuman mahalliy byudjet idan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	O‘rta Chirchiq tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**97 704 607**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	28 121 207
	shundan:	
	"Mening maktabim"	3 250 098
2	Madaniyat bo‘limi	633 248
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	5 681 902
4	Sport bo‘limi	4 395 924
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 586 906
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	2 049 402
7	Irrigatsiya bo‘limi	2 404 387
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 012 961
9	Hokimyat	36 319 322
	shundan:	
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	263 047
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	80 850
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	20 980 006
	"Mahalla byudjet i" jamg‘armasi mablag‘lari	3 114 027
	Zaxira jamg‘armasi	1 035 775
10	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	659 806
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	65 372
	Axborot-kutubxona markazlari	594 434
11	*Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)*	13 839 542

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
3-ilova

O‘rta Chirchiq tumani mahalliy byudjet iga 2025-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma meyorlari

№	Soliqlar va to’lovlar nomi	2025-yilda ajratma meyorlari	
		Mahalliy byudjet ga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0%	10 %
2	Foyda solig‘i	0%	0%
3	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) aksiz solig‘	0%	0%
4	Pivoga aksiz solig‘i	0%	0%
5	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0%	25%
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0%	41%
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0%	43%
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%
10	Davlat ulushi bo‘yicha dividendla	0%	100%
11	Aylanmadan soliq	100%	
12	Davlat boji	0%	
13	Jarimalar	0%	
14	Yig‘imlar	0%	

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025 yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan er solig‘istavkalari, (1 kv.m uchun)		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, (1 kv.m uchun)	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
O‘rta Chirchiq tumani		**1.00**	**5 698,0**	**1.00**	**512,40**
1	A.Yo‘lbarisov MFY	1.00	5 698,00	0.95	486,78
2	Adolat MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
3	Aranshi MFY	0.90	5 128,20	0.90	461,16
4	Arg‘in-Sada MFY	1.20	6 837,60	1.10	563,64
5	Beshboy MFY	1.00	5 698,00	0.95	486,78
6	Boyqo‘rg‘on MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
7	Boyovul MFY	1.00	5 698,00	0.75	384,30
8	Bunyodkor MFY	1.20	6 837,60	1.25	640,50
9	Burgalik MFY	1.00	5 698,00	0.95	486,78
10	Galabotir MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
11	Guliston MFY	1.00	5 698,00	0.90	461,16
12	Gulobod MFY	1.10	6 267,80	1.00	512,40
13	Darxan MFY	1.10	6 267,80	0.90	461,16
14	Do‘stlik MFY	1.10	6 267,80	1.00	512,40
15	Yoriq MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
16	Jangabay MFY	1.00	5 698,00	0.90	461,16
17	Yungichqoli MFY	1.10	6 267,80	1.00	512,40
18	Qaytmas MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
19	Kim Pen Xva MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
20	Qoraqo‘yli MFY	1.00	5 698,00	0.90	461,16
21	Qorasuv MFY	1.10	6 267,80	1.20	614,88
22	Qunduzak MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40

23	Kuchlik MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
24	Koʻkmuyin MFY	1.00	5 698,00	0.95	486,78
25	Qoʻshdaryo MFY	1.00	5 698,00	0.90	461,16
26	Mayramkoʻl MFY	1.10	6 267,80	1.00	512,40
27	Mashʻal MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
28	Mingtepa MFY	1.00	5 698,00	0.90	461,16
29	Mustaqillik MFY	1.10	6 267,80	1.20	614,88
30	Nomdanak MFY	0.90	5 128,20	0.90	461,16
31	Obod MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
32	Oq-ota MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
33	Olti oʻgʻil MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
34	Rovatak MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
35	Saidovul baxt MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
36	Taraqqiyot MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
37	Tinchlik MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
38	Toshloq MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
39	Turkiston MFY	1.00	5 698,00	1.10	563,64
40	Uygʻur MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
41	Usmon ota MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
42	Oʻrtaboʻz MFY	0.90	5128,20	0.90	461,16
43	Oʻrtaovul MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
44	Oʻrtasaroy MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
45	Oʻchoqli MFY	1.20	6 837,60	1.20	614,88
46	Fayzobod MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
47	Farovon MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
48	Xalqobod MFY	1.10	6 267,80	1.00	512,40
49	Changtepa MFY	0.90	5 128,20	0.90	461,16
50	Chegara MFY	1.00	5 698,00	0.90	461,16
51	Chuqurovul MFY	1.00	5 698,00	0.90	461,16
52	Sholikor MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64
53	Yuqoriovul MFY	1.00	5 698,00	1.00	512,40
54	Yangiyoʻl MFY	1.00	5 698,00	0.90	461,16
55	Yangilik MFY	1.00	5 698,00	1.10	563,64
56	Yangiobod MFY	0.90	5 128,20	0.80	409,92
57	Yangiturmush MFY	1.10	6 267,80	1.10	563,64

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	O‘rta Chirchiq tumani	1.00	1 300 000.0

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
6-ilova

.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida 2025 yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	O‘rta Chirchiq tumani	1,05	1,05	1,05	1,05	1,00

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
7-ilova

YATTlar uchun belgilangan eng kam va eng yuqori stavkalari (diapazon) doirasida hududlar kesimida miqdori

ming.so‘mda

T/r	Hudud nomi	2025 yil						
		Chakana savdo			Maishiy xizmat	Boshqa faoliyat turlari	Yuk tashish faoliyati	
		oziq-ovqat va nooziq ovqat tovarlari sotish	dexqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi maxsulotlari sotish	gazeta jurnallar va kitob maxsulotlari sotish			3 tonnagacha yuk tashish avtomobillari uchun	3 tonnadan ortiq yuk tashish avtomobillari uchun
1	O‘rta Chirchiq tumani	600,00	150,00	150,00	150,00	150,00	250,00	350,00

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisiyentlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
12	O‘rta Chirchiq tumani	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10	1,10

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	Tuman va shaharlarnomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	O‘rta Chirchiq tumani	1,25	1,25	1,25	1,25	1,25	1,25	1,25

Xalq deputatlari O’rtachirchiq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-013-10-143-K/24 -son qaroriga
10-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori

ming.so‘mda

T/p	**Tuman va shahar nomi**	**II. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig‘i, ming so‘mda**					
		Turar joyar uchun			Noturar joylar uchun		
		2025-yil minimal qiymati	koeffsiyent	2025 -yil stavka	2025-yil minimal qiymat	koeffsiyent	2025-yil stavka
1	O‘rta Chirchiq tuman	5,50	1,05	5,78	11,00	1,10	12,10